XALQ DEPUTATLARI BOYSUN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 20-mart VII-6-39-8-110-K/25 Boysun tumani

Boysun tumanida 2025-yil uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli, Boysun tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 22-yanvardagi 21-00594-sonli xati, xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksining 445- va 452-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24 moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QARORQILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli xati, Boysun tumani soliq inspeksiyasining 2025-yil 22-yanvardagi 21-00594-sonli xati hamda Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-016-8-0-K/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Boysun tumani bo‘yicha 2025-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,3 gacha qo‘llaniladigan koefitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

noruda qurilish materiallari uchun (smentdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati (Y.Xoliyorov), “Boysun” gazetasi tahririyati mazkur qarorning “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinishi hamda hokimlik veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Y.Jo‘rayev) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Alimov) zimmasiga yuklansin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



SHUKUROV BOXADIR
SHOTURAYEVICH

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-6-39-8-110-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Boysun tumani bo‘yicha 2025-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

(qishloq ho‘jaligi, elektr stansiyalari, kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan yirik soliq to‘lovchilarga nisbatan tatbiq etilmaydi)

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek, YaTTlar		Sanoat korxonalari		Avtotransport vositalarini yuvish		Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari)	
		Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti	Yer usti	Yer osti
1	Boysun tumani	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2	1,2

Xalq deputatlari Boysun tumani
Kengashining
2025-yil 20-martdagi
VII-6-39-8-110-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Boysun tumani bo‘yicha 2025-yil noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar

ming so‘mda

T/r	Tuman nomi	Arralanadigan xarsang tosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*, dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosienitlar, sienitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin	Tabiiy bezaktoshdan bloklar	Marmar	Granitlar	Gips toshi, gips va angidrid, ganch	G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar	Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar)
1	**Boysun tumani**	**1,2**	**1,2**	**1,2**	**1,2**	**1,2**	**1,2**	**1,2**